


II. SANOAT



Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 73 579,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,3 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr
mlrd. so'm**



**Yanvar-dekabr
FHI, % da**




■ Mlrd. so'm ■ FHI, % da



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 120 883,9 ming so'm, Xonobod shahrida 64 882,9 ming so'm hamda Xo'jaobod tumanida 24 667,9 ming so'm, Andijon shahrida 21 492,1 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar-dekabr ming so'm




Yanvar-dekabr o'sish sur'ati, % da



■ Mil. so'm ■ FHI, %da



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 72 172,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 98,1 % ni tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (57,7 %), Andijon shahri (13,9 %), Xonobod shahri (4,0 %), Xo'jaobod tumani (4,0 %) hamda Qo'rg'ontepa tumani (3,7 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Asaka tumanida (108,5 %), Jalaquduq tumanida (108,0 %) hamda Andijon tumanlarida (107,6 %) kuzatildi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 823,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.



Yanvar-dekabr

2022-y. 292,8 mlrd. soʻm

2023-y. 823,0 mlrd. soʻm

FHI, % da

2022-y. 116,3 %

2023-y. 127,1 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72 172,1 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 98,1 % ini tashkil etdi.

Yanvar-dekabr

2022-y. 52 903,1 mlrd. soʻm

2023-y. 72 172,1 mlrd. soʻm


FHI, % da

2022-y. 122,2 %

2023-y. 108,4 %



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2023-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 281,6 ming dona yengil avtomobillar (2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 20,1 % ga oshgan), 39,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni, (67,9 % ga kamaygan), 40,3 ming tonna paxtadan yigirilgan ip mahsulotlari (2,0 % ga oshgan) ishlab chiqarilgan.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati,
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtsoslashtirilmagan), dona	281 583,0	234 519,0	47 064,0
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	40 340,9	39 539,1	801,8
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	39 147,7	121 770,0	-82 622,3
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	305,7	190,3	115,4

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi 66,3 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi 10,5 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,6 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi 10,6 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 78,9 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida – 2,3 m.), o‘rta-yuqori texnologiyali – 70,5 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida – 146,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,3 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida – 94,1 %) va quyi texnologiyalisi – 26,9 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida – 116,7 %)ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati 75,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 71,4 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 39,4 % ni tashkil etgan.


Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 71,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 677,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 143,2 % ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 2 537,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,3 % ni tashkil etgan.

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 22,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 403,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-dekabr oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,0 % ni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 7,1 % ga oshgan, ishlab chiqarish hajmi 7 810,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,0 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 66,3 %, fizik hajm indeksi 11,9 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 48 780,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 147,6 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 150,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 837,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,2 % ni tashkil etgan.


Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 136,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 658,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 76,2 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 109,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 478,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni fizik hajm indeksi esa 73,2 % ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 425,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 376,6 mlrd. so‘mga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	652,3	791,4	-139,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,4	0,4	-

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

E seksiya

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 158,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr	Farqi, +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	109,7	77,1	32,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	-	-	-

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 109,7 mlrd. so'm yoki 42,3 % ga ortganligi kuzatildi.

Shuningdek, axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda hajm bajarilmagan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 51 506,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 70,0 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 28,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida 79,6 %, Xo'jaobod tumanida 4,8 % hamda Andijon shahrida 2,7 % ga to'g'ri keladi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 41 001,8 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 79,6 %, Xo'jaobod tumanida 2 483,7 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 4,8 % shuningdek, Andijon shahrida 1 382,0 mlrd. so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste'mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.




Viloyat bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi




Viloyat bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, % da




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi


Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 15 335,9 ming so'm bo'lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo'yicha Asaka tumanida 116 731,8 ming so'mga, Xo'jaobod tumanida 20 945,4 ming so'mga, Xonobod shahrida 9 794,1 ming so'mga, Oltinko'l tumanida esa 4 692,7 ming so'mga to'g'ri keldi.



Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari hajmi, ming so'm




Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari o'sish sur'ati, %da



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
2023-yilning yanvar-dekabr oylarida
(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, foizda)


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 211,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Andijon tumani (82,5 %), Shahrixon tumani (81,2 %), Baliqchi tumani (71,4 %), Xoʻjaobod tumani (69,2 %) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Asaka tumani (1,5 %), Andijon shahri (28,9 %), Marhamat tumani (33,7 %). Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 961 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 511 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 479 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 26,8 %) Andijon shahriga, 611 tasi (11,1 %) Andijon tumaniga, 505 tasi (9,2 %) Asaka tumaniga, 406 tasi (7,4 %) Shahrixon tumaniga, 401 tasi (7,3 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Yangi tashkil etilgan korxonalar, birlikda



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar, birlikda



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.